



Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th October, 2023

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

"JADID VAKILLARI ILMIY FAOLIYATIDA AYOLNING OILADAGI VA JAMIYATDAGI MAVQEI MASALASI"

Yunusova Dilobar Murtazoyevna,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistratura 2-bosqich talabasi

Toshkent shahri 110 maktab tarix o'qituvchisi

+99890 717-30-93

Ilmiy rahbar: Phd, dots. B.A. Odilov

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada jadid adabiyoti davrlari, bosqichlari va tuzum nuqtayi nazaridan kelib chiqqan mafkuraviy g'oyalalar va ularda ayollarning o'rni ilmiy-falsafiy, didaktik tahlil etiladi. Jadid adabiyoti namoyondalarining dramalarida asosida ayollar obrazini alohida bir timsol, alohida bir mavzu sifatida ko'tarish sabablari yoritib, misollar tariqasida ochib berishga harakat qilinadi.

KALIT SO'ZLAR: Jadid, islohot, islohotchilik, taraqqiyot, ziyoli, maydon, demokratiya, taqdir, tarix, muhit, davr, jaholat, ma'rifat, mustamlaka, ilmsizlik, bosqinchilik, erk, erksizlik, hurriyat.

ANNOTATION:

This article is a scientific-philosophical, didactic analysis of ideological ideas from the point of view of the periods, stages and systems of modern literature and the role of women in them. Attempts are made to illustrate the reasons for raising the image of women in Jadid literature as a separate symbol, a separate topic, as examples.

KEYWORDS: Jadid, reform, reform, development, enlightenment, field, democracy, destiny, history, environment, period, ignorance, enlightenment, colonialism, ignorance, aggression, freedom, liberty, liberty.

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: جدید — jadīd — yangi) — XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatdir. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi. Jadidchilik avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g'oyalarini targ'ib qilishgan. Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal, millatchilik harakati“ deb ta'rif berilgan. Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi SSRI parchalanib ketganidan keyin qayta tiklandi.

"Jadid" arabcha so'z bo'lib, "yangi" degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun ham yangilik va islohotchilikka intiluvchi, yangilik yaratuvchi faoliyat bilan mashg'ul bo'lган taraqqiyparvar, ilg'or ruhdagi milliy ziyolilar tarixda "jadid" degan nomga musharraf bo'ldilar. Ularning harakati esa jadidchilik deb nomlandi. Bu harakatning paydo bo'lishi bevosita o'sha davrdagi ichki muhit hamda tashqi xalqaro maydondag'i ijtimoiy-siyosiy va demokratik yangilanishlar bilan bog'liq bo'ldi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlariga kelib, Turkistonda millat taqdiriga tahdid soluvchi o'ta qaltis va og'ir ichki tarixiy muhit paydo bo'ldi. Bir tomondan, Rossiya imperiyasi musatamlakachiligi siyosiy jihatdan mustahkamlandi. Mustamalka va zo'ravonlikka mukkasidan ketgan rus bosqinchilari esa, endi o'z mafkurasini singdirish orqali ma'naviy ustunlikka ham ega bo'lishi uchun mahalliy xalqni ruslashtirish, uning g'ururini sindirish, o'zligini yo'qotishdek, o'ta razil shovinistik siyosatni kuchaytirdilar. Ikkinci tomondan esa, millat va xalqimiz o'z siyosiy, ma'naviy huquqlari, erki va hohish-irodasini yo'qotdi. Uchinchidan, umuman muslimon mutaassibligi (konservativm va bid'at) kuchaydi. Millatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli hamda ma'naviyati tubanlashdi. Buning ustiga ustak, din peshvolari orasidagi mutaassiblarda yangilikka, dunyoviy ma'rifat va taraqqiyotga paytda millatni halokat va falokatdan asrab, saodatga olib chiquvchi jadidlar tarbiyasi bilan millatni ma'nан tobe qilib, halokat va falokatga duchor etuvchi mustamlakachilar «tarbiya»si qarama-qarshiligi paydo bo'lgan edi.





Jadidchilik harakati ba'zi-bir tarixga oid adabiyotlarda aytiganidek, "oldin madaniy-ma'rifiy harakat bo'lib, keyin ijtimoiy-siyosiy harakatga o'sib o'tgani" yo'q. U o'z tabiat maqsad va mohiyatiga ko'ra, dastlabki kundanoq, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy va islohotchilik harakat bo'lgan.[3] Ammo Vatanni ozod va obod qilish, millat va xalqni hurriyatga olib chiqish, to'q va farovon, madaniyatli qilish uchun jadidlar asosiy e'tiborni dastlab madaniy-ma'rifiy ishlarga qaratdilar.

Akademik A. N. Samoylovich jadid adabiyotini o'rganib, 1916-yilda "Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi" deb yozgan edi. Darhaqiqat, olim uchun kutilgan "Yangi adabiyot"-jadid adabiyoti bo'ldi. Bu adabiyot o'z mazmun va mohiyati hamda janrlariga ko'ra, ming yillar davomida shakllanib rivojlangan mumtoz adabiyotimizdan tubdan farqlanuvchi yangi adabiyot beriladi. Zebi-hurkak ohu kabi go'zal va ilojsiz. Uning qalbi shu qadar tozaki, yomonlik haqida o'yash nima ekanligini ham tushunib yetmaydi. U insonlarni sevib yashaydi. Razolat to'lib yotgan dunyoga muhabbat ko'zi bilan boqadi, biroq jaholat tozalik va go'zallik bilan kelishmaydi, go'dakday beg'ubor bo'lgani uchun ham bag'ri ifloslik va kirga to'la hayot uni sig'dirmaydi, shudringday toza va chechakday pokiza bo'lgani uchun hayotning shafqatsiz va badbo'y havosida nafasi bo'g'iladi. Zebi ketma-ket baxtsizliklarga uchrasa ham romanga qanday kirib kelgan bo'lsa, shundayligicha qoladi. Zebuning bu holatiga biz taqdirdosh, qismatdosh, darddosh bo'lib, xavotir bilan kuzatamiz. Zebining baxtsiz bo'lishiga mamlakatdagi zulm-zo'rovonlik ustuvor ekanligidadir. Cho'lponning asosiy maqsadi ham mavjud tuzimni tag-tomiri bilan o'zgartirish edi. Zebi faqat ayollik latofati va oljanob insoniy fazilatlari bilangina emas , ayni paytda xush ovozi bilan barchaning e'tiborini tortadi. Ammo ijtimoiy tengsizlik hukumron bo'lgan va ayollar qadr-qimmati oyoq osti qilingan jamiyatda Zebining orzu-havaslari yanchiladi.[5] Ajodolarimiz asrlar davomida ana shu tengsizlikka qarshi ma'rifat bilan kurashdilar. 1920-1930-yillarda avj olib ketgan siyosiy taqib, o'zbek xalqining boshiga og'ir kunlarni soldi. Otabobolarimiz udumlariga eskilik sarqitlari deb, momolarimiz o'gitlariga bepisandlik, muqaddas qadriyatlarimizga qurol ko'tarishdek nafrat tuyg'ulari har bitta o'zbek xalqini majburan o'ziga tortqilardi.

O'zbek xalqi o'zining boy merosi, qadimiy madaniyati, milliy qadriyatlarini hech bir joyda ochiq - oydin gapirolmas, o'z tuyg'ularini yuragida sirligicha saqlab



yashaydigan bir davr edi. Bunday paytda yurt taqdiri, farzand kelajagi, vatan ozodligi, inson qadr-qimmati to'g'risida og'iz ochish, boshini dorga tikish bilan barobar edi.

Yana bir misol tariqasida Hamza Hakimzoda Niyoziy (Nihoniy taxallusi bilan ijod qilgan)ning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari" asari qahramoni Maryam timsolida ham ko'rishimiz mumkin. Maryam ilmga tashna ayol timsoli. "Yangi saodat" asarida Olimjonning m a'rifat tufayli baxtli hayotga erishuvi va uning o'z baxtidan boshqa kishiam ing ham bahramand bo'lishini tasviriagan bo'lsa, "Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari" fojiasida m a'rifatli insonning jaholat va g'aflat zindonidagi fojiali taqdirini ko'rsatishni maiqsad qilib olgan. Ushbu asar janrini Hamza " Turkiston maishatidan olingen qiz va kuyov fojiasi" deb ataydi. Dramaturg pyesaning dastlabki sahnasidayoq qahramonlaR ing o'zlariga munosib bo'lm agan, ular qalbidagi muhabbat gullarini xazon qilishga tayyor bir muhitda yashayotganini ko'rsatadi. Shu tarzda pyesaning avvalidayoq eskicha qarashlar ta'siridagi ota-onalar bilan ulardan ilgarilab ketgan va o 'z zamонига sig'm ay qolgan yoshlar o'rtasidagi ziddiyat nish uradi. Voqealar rivojlanishi bilan bu konflikt taranglashib, oxirida kamonning tortilgan voyidek uchib boradi-da. har ikkala qahramonni - Mahmudxon bilan Maryamxonni halok qiladi.

Shunday qilib, jadid adabiyotida ayollar timsoli o'ziga xos tarzda namoyon bo'ldi. Ayollarning erk-ozodligi, ilm-ma'rifatga qiziqishi, ota-onasi ra'yidan chiqolmay taqdir hukmiga bo'yin egishi asarlarda bir-biriga qarama-qarshi konflikt tarzda jadid adabiyoti mafkurasini yoritib bera oldi. Xususan, Abdurauf Fitratning "Advokatlik osonmi?" asaridagi ayollar timsoli ham, Cho'lponning kichik-kichik hikoyalaridan tortib, katta janrdagi barcha asarlarida, barcha-barcha ma'rifatparvar ijodkorlar ijodida ayollar timsoli o'ziga xos mavzuga aylana oldi. o'sha davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib, ayollarni qul sifatida baholash, ayollarni nazir sifatida taqdim etish, ularni o'z erkidan, ilm-ma'rifatdan yiroq qilish holatlari ko'plab uchrab turishi jadid adabiyotida chinakam mavzuga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mutaassiblar bid'at botqog'iga botgan holatda, ijtimoiy majhul (noaniq)likdagi g'aflat uyqusiga mast bo'lib, aql va fahm-farosatlari ojizligi evaziga, o'zlarini sezmagani holda mustamlakachilar manfaati (mafkurasi)ga xizmat qila boshlaydilar.



Millat va xalqimiz mana shunday ikki tomonlama o'ta ayanchli va havfli ijtimoiy-siyosiy muhit hamda vaziyatga duch kelgan bir paytda musulmon ziyorilar din homiyilari orasidan yangi bir taraqqiyat parvar guruhning harakati paydo bo'ldi. Ular «jadid» (yangi) degan ulug' nomga tuyassar bo'lgan holda, Millat va Vatan, musulmon xalqlari uchun ma'naviy qalqon bo'lib, kurash maydoniga otildilar. Jadidlar millatni bo'yin egishi va tanama-taqdir qilish havfidan qutqarishning birdan-bir to'g'ri yo'li avval tarbiya va ma'rifat, so'ng islohot ekanligini juda to'g'ri anglab yetdilar.

Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g'oyasi ana shu murakkab sharoitda shakllanib yetildi. Bu davr haqida shunday deyilgan: “Tarixdan shu narsa ma'lumki, har bir kichik harakat ertangi katta harakatning zamini vazifasini o'taydi. Bu kungi mag'lubiyat ertangi g'alabaning amalga oshuvida ozmi-ko'pmi rol o'ynaydi. Busiz jamiyatning rivojini tasavvur etish qiyin [2:4]”.

Jadidlik Turkistonda XIX asrning oxirida maydonga kelgan, XX asrning boshida shakllanib, qisqa muddatda o'zining cho'qqisiga ko'tarilgan. Jadidlik 1917-yilgi bolsheviklar to'ntarishidan keyin ham sotsialistik diktatura o'rnatilgunga qadar o'z mavqe va yo'nalishini saqlab qola olgan ijtimoiy harakatdir. Ba'zi manbalarda jadidlik oqim deb atalsa, ba'zisida harakat deb aytildi.

Jadidlik oqim emas, harakat deb ta'kidlaydi B.Qosimov [3:61]. Ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy harakat yaqingacha ham ataylab faqat ma'rifatchilik harakati deb kelindi. Maqsad jadidlikning doirasini toraytirish, sotsialistik-kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi. Jadidshunos olim B.Qosimov jadidlik harakatining xarakter va muddaosini 3 turga bo'lib izohlaydi: Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg'onish mafkurasini bo'lib xizmat qildi.

Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g'ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko'rgan Turkiston muxtoriyati bu yo'ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi. Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi. Bu xarakter va yo'nalishni qator olimlar e'tirof etdi. Bugungi kunda jadidlarni olib borgan ishlari keng jamoatchilik o'rtasida turli xil bahslarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Aslida jadidlar harakati faqat Turkistonda vujudga kelmadi.



Turkistonda jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Rusiya musulmonlari, xususan, Kavkaz va Volga bo'yida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyatparvarlik harakatining bevosita ta'siri va samarasi sifatida dunyoga keldi. Bunda Ismoil Gaspiralining "Tarjimon" gazetasi (1883) va u asos solgan "usuli jadid" (ikkinchi nomi "usuli savtiya") maktabi (1884) muhim rol o'ynadi. Bu harakatning jadid deb atalishi haqida Abdulla Avloniy "Shul zamonda (1894-1904 yillar) yerli xalqlar orasida eskilik-yangilik (qadim-jadid) janjali boshlandi. G'azit o'qig'uvchilarni mullalar "jadidchi" nom bilan atar edi" [3:61], degan fikrni keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Adabiyot nazariyasi 1-, 2-tomlar. 1979. Scientific Journal Impact Factor
 2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. 1980 yil
 3. H. Homidov va bosh. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. 1983. Alimova D. A., Golovanov A.A. O'zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlarL-T., "O'zbekiston", 2000.
 4. Jadidchilik islohot yangilanish, Mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (Turkiston va Buhoro Jadidchiligi tarihiga yangi chizgilar). Davriy to'plam №1,-T "Sharq", 1999.
 5. Ziyoev H.Z. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi-T.2001 y.